

## Og'a xalqimning tili ham buyuk

Mana, asrlar osha "ovul aralash, qo'y qo'ralash" bo'lib yashab kelgan o'zbek va qoraqalpoq xalqlari tilining rasman davlat tili deya e'tirof etilganiga 30 yil bo'ldi.

Bugun har bir millat o'zining shonli o'tmishiga teranroq nazar tashlab uning shoniga yanada shon qo'shishga intilmoqda. Italyanlar butun dunyo se-vib iste'mol qiladigan "makaron" atamasining kelib chiqishini Marko Pologa borib taqaydi. Biz ham "Algoritm", "Algebra" atamalarining shakllanishiga asos bo'lgan Al-Xorazmiy bobomizning ismi bilan faxrlanamiz.

Xalqimizning ulug' shoiri, O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov o'zbek tiliga juda katta hurmat bilan qaragan. Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar bilan birga shahar aylanib, Zulfiyaning "oltin sozli muzasini tinglab" ilhom olgan shoirning she'riyatida turkiy qavmning teran ildizli bu tiliga yuqori baho beriladi. Shoir, ayniqsa, bu til rivoji yo'lida ko'p zahmat chekkan zotlarga alohida to'xtaladi.

*Navoy shon bergan, Bobur kuyilgan,  
Mashrab g'azal bitgan bu til bor bo'lsin,  
Bu til uchun Qodiriy xo'rlagan,  
Nokaslar oxiratda xor-u zor bo'lsin.*

O'zbek xalqi — og'a xalq. Og'a xalqimning tili ham buyuk. Turkiy ellarimiz, turkiy tillarimiz dunyo turguncha tursin!

Allayar DARMENOV

Bugun Yaponiyaning 8 universitetida, Turkiyaning 18 universitetida, Amerikaning 8 oliy o'quv yurtida, Germaniyaning 4 ta'lim dargohida, Janubiy Koreyadagi 2 oliy o'quv dargohlarida hamda Xitoydagi Millatlar universitetida o'zbek tili o'qitiladi.

## Ma'naviyat ko'zguasi

Ammo o'zimizning tilga bo'lgan hurmatimiz haminqadar. Mana, masalan, Janubiy Koreya yoki AQShga ishga ketish uchun avval uning tilini, tarixini o'rganib, imtihon topshirib, shu tilni biladi, degan sertifikatni olib, keyingina ketamiz. Ammo nega O'zbekistonda yashab, O'zbekiston fuqarosi bo'laturib, o'zbek tilini bilmaydiganlar bor? O'rganishni istamaymiz? Vaholanki, dunyo davlatlarida rasmiy til majburiy o'rgatiladi! O'zbekiston hududi o'zbek tilining makonidir. Hech bir rivojlangan davlatda boshqa bir til davlat tili bilan barobar qo'llanilmaydi.

Yana bir narsa kishi dilini xira torttiradi. Bugun jamoat joylarida, yoshlarimiz suhbatlarida o'zbek tiliga ruscha yoki boshqa tillarni aralashtirib gapirishadi. Hech e'tibor berganmisiz? Nega birorta yapon yapon tilini, birorta turk turk tilini buzib gapirmaydi? Boshqa davlatlarda ham shunday. Chunki ular o'z

ona tiliga davlat timsoli darajasida qaraydi. Biz ham tilga shunday munosabatda bo'lishimiz kerak. Buning uchun maktablarda, oliy o'quv yurtlarida ona tilini o'qitish va targ'ib qilish kuchayishi, qat'iylashishi, ona tilimiz kuchli himoya qilinishi zarur. Ommaviy axborot vositalarida ham til haqida chiqishlar faqat "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan kun arafasida emas, doimiy bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

UNESCO vakillarining so'zlariga qaraganda, dunyodagi tillarning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu, asosan, sivilizatsiya tufayli madaniyatidan ayrilayotgan kam sonli millatlarning tillaridir. Bu tillarda so'zlovchi aholining ayrimlari yozuvga ega bo'lsa, ayrimlari bundan bebahra. Masalan, Afrika tillarida so'zlashuvchi aholining 80 foizi hamon o'z yozuvlariga ega emas. Minglab tillardan ta'lim tizimida foydalanishning imkoniyati yo'q.

Internetdan foydalana olmaydigan tillar haqida-ku aytmasa ham bo'ladi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o'z tillaridan ko'ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to'g'ri keladi. To'g'ri, avvallari ham tillar paydo bo'lgan, muomalada bo'lib, ma'lum vaqtdan so'ng yo'q bo'lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo'qolishi tarixda kuzatilmagan.

Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun unda kamida bir million kishi so'zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O'zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albat. Ana shundan quvongan holda, biz o'z ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum eta olsak, millatimiz yanada charog'on va birligimiz mustahkam bo'ladi.

Mansur MUSAYEV,  
Shahnoza ASHIROVA,  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat  
markazi mas'ul xodimlari

Alisher Navoiyning barcha asarlarida turkiy til imkoniyatlari ochib berilgan. Ayniqsa, "Muhokamat ul-lug'atayn"da turkiy va forsiy til qiyoslangan.

## Tillarning eng to'g'risi

Forscha so'zlarning o'zbek tilidagi muqobili izohlangan. Masalan, "oziq va har qanday taomki yesa bo'lur, yegulik deyiladi. Fors elining ko'pi, balki, barchasi yemakni ham, ichmakni ham "xo'rdan" so'zi bilan ifodalaydi. Katta qardosh va kichkina qardoshni forslar "birodar" deydi. Turklar esa o'g'ilning kattasini "og'a" va kichigini "ini" deydi, qizning kattasini "egachi"

va kichigini "singil" deydilar...". Turkiy tilning imkoniyatini Navoiychalik bu kabi misollar bilan asoslab bera olgan tilshunos bo'lmasa kerak. Millat qalbida o'z ona tilidan faxrlanish tuyg'usi tilining tarixini, imkoniyatini va boyligini to'la anglaganidan so'ng muhrlanadi.

R.IKROMOVA,  
Vobkent tumanidagi 13-maktab o'qituvchisi

## "Buxanka" nemischa so'zmi?

Nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar o'zbek tili so'z xazinasiga XX asrning birinchi va ikkinchi yarmidan boshlab kirib kela boshlagan. O'z o'rnida bu jarayonga birinchi va ikkinchi jahon urushining ta'siri katta bo'lgan. O'zbek adabiyotida nemis tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

Fikrlarimizni isbotlash uchun quyidagi ko'p qo'llanadigan misollarni keltiramiz: *Avaxta (hauptwache), bantik (band — tasma, tugun), bint (binge — bog'ich, bog'), bolt (bolt — mahkamlovchi chiviq temir), bort (bord yoki borte — chekka, yon, brak (brack — nuqson), buterbrot (buter — yog', brot — non), buxanka (vochenze — oq non), buxalter (buch — kitob, halter — tutib yuruvchi), galstuk (hals-tuch — bo'yin ro'mol), gastrol*

*(gast — mehmon, rolle — rol), grossmeyster (großmeister — katta usta), landshaft (landshaft — manzara), lenta (linde), linza (linse), masshtab (maß — o'lchov, stab — tayoq), mentalitet (mentalität), mufta (muffe — val, tishli g'ildirak), zal (saal — katta xona), vaflı (waffel — asal), shablon (schablone — andoza, namuna), shayba (scheibe — lappak, gardish disk), shifer (schiefer): yarmarka (jahrmarkt — bir vaqtda o'tkaziladigan katta bozor, savdo) va hokazo.*

Bu so'zlarning ko'pi rus tili orqali kirib kelgani ayon. Ammo bu hamma yangi so'zni o'zbekchaga o'zlashtirib lug'atlarga kiritib yuboraverish kerak degani emas. So'z o'zi ifodalayotgan yangi ma'no bilan birga kirib kelsa, til bitta so'z bilan birga milliy tafakkur yangi bir mazmun bilan boyiydi. Bunday vaziyatda yangi so'zni bazonidil o'zbek tiliga qabul qilish kerak. Ammo muqobili bo'lib turgan so'zlarni tilga tirkab qo'yish milliy til uchun haqoratdir. Tashqi manba orqali tilning boyib borishi millatlar o'rtasidagi munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi, nemis tiliga qiziquvchilar safini yanada kengaytiradi va ona tilimiz so'z boyligining boyishiga ham katta hissa qo'shadi.

Pyrim NURALIYEV,  
G'uzor tumanidagi  
18-maktab o'qituvchisi

## O'z nodonligimizni o'zbek tiliga to'nkamaylik...

Tilimizdan fors-tojik va arab so'zlarini ayirish bir go'zal til imoratini naqshlardan tozalash bilan barobardek. Biz qardosh xalqlar bilan uzoq vaqt et-tirnoq yashadik, bir-birimizdan oziqlandik. Aslida, tilning kambag'al yoki boyligini xalqning tafakkur darajasi belgilaydi.

Masalan, rus xalqi bizdan "сепза" (sirg'a), "бахча" (bog'cha), "арык" (ariq), "очаг" (o'choq), "караул" (qorovul), "камыш" (qatish), "аркан" (arqon), "каткан" (qorqon), "есаул" (yasovul), "беркыт" (burgut) kabi o'nlab, yuzlab so'zlarni o'zlashtirib kambag'al bo'lib qolgan emas-ku. Hatto biz rus kalomi deb o'ylaydigan "stakan" ham turkiycha o'zlashma bo'lib, eski o'zbek tilidagi "tustag'on" — qimiz va may ichadigan yog'och idishdan olinganini bilmaymiz.

Navoiy ko'plab asarlarini turkiyda yozgani uning fors tilini yaxshi bilmagani uchun emas, balki turkiy til jilvalarini forsiydan teranroq anglagani uchundir. Demak, kambag'allik bizning ongimizda, fikrimizda. Ba'zan bir jumla o'zbekcha so'z topolmay, osongina boshqa til so'z boyligidan foydalanish — so'zni nobud qilishning o'zi. Chunki ishqalangan tanga yaraqlaydi. Qodiriy bobo bir zamonlar barcha tillar qo'shni tillardan "qarz" olishini, busiz jumlayi ma'no

shirasiz va quruq chiqishini ta'kidlab: "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", deya qayg'urgan edi.

Jon saqlab qolgan har bir turkiy so'z zamirida xalqning e'tibori, mas'uliyati, kuchi bor. Asrlar tog'ni tolqon qiladi, ammo so'zni emas. Turkiy bobomiz Bilga xoqon bitiktoshida: "Bing yiliq tuman kunluk bitigimin, balgumin bunta yasi tashqa yaratdim, tolqu tashqa toqutdim", deya bitgan. Ma'nosi: "Ming yillik, tuman kunlik yozuvimni, belgimni bu yerda yassi toshga o'yishga buyurdim". Toshlar yemirildi, tirik qolgan so'zlar yashadi.

Bugun bizdan talab etilayotgani shuki, so'zimizni, bitigimizni o'z tilimizda aytaylik, yozaylik. So'zshunosda, savdogarda, hatto aravakashda ham shu mas'uliyat bo'lsin.

Latofat TO'RAYEVA,  
Kitob tumanidagi 20-maktab  
o'qituvchisi